

“XITOY-POKISTON IQTISODIY KORIDORI (CPEC) NING BALUJISTON MINTAQASIGA TA’SIRI”

Ilmiy rahbar: Mamatqulov S.X., PhD

Olimov Xurshid Erkin og‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti magistr talabasi.

E-mail: xurshidolimov122@gmail.com

https://orcid.org/0009-0009-5780-6404

Anatatsiya. Ushbu maqola Xitoy Pokiston Iqtisodiy Yo‘lagi (CPEC) doirasida Balujiston mintaqasida amalga oshirilayotgan infratuzilma va energetika loyihalarining mahalliy resurslar taqsimoti, iqtisodiy manfaatlar balansi hamda hududiy ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ko‘rsatgan ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqot CPECning rasmiy ravishda “rivojlanish va integratsiya loyihasi” sifatida taqdim etilishi bilan amalda Balujistonda yuzaga kelayotgan iqtisodiy nomutanosiblik, resurslar ustidan markaziy hukumat nazoratining kuchayishi va mahalliy aholining loyihalardan chetda qolishi o‘rtasidagi ziddiyatni o‘rganadi. Shuningdek, tadqiqot CPEC fonida vujudga kelgan norozilik harakatlari, Baluj milliy identifikatsiyasining faollashuvi va xavfsizlik muhitining keskinlashuvini tahliliy va qiyosiy yondashuv asosida yoritadi. Maqolada Gvadar porti, transport yo‘laklari, iqtisodiy zonalar hamda tabiiy boyliklar (gaz, mis, oltin, neft) ustidan nazoratning markazlashuvi Balujistonning iqtisodiy ulushiga qanday ta’sir qilayotgani xalqaro va mahalliy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, daromadlarning markazga yo‘naltirilishi, mahalliy aholi uchun ish o‘rinlarining cheklanganligi, suv va yer resurslarining tanqischiligi, majburiy ko‘chirishlar va xavfsizlik siyosatining kuchayishi Baluj noroziligini kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot dolzarbligi shundaki, CPEC – mintaqaviy geopolitika, iqtisodiy integratsiya va xavfsizlik tizimining asosiy o‘qi sifatida talqin qilinar ekan, Balujiston misolida uning mahalliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko‘p yillik etnik-siyosiy ziddiyatlarni yanada chuqurlashtirayotganini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi. Ushbu maqola CPECning makrogeoiqtisodiy maqsadlari bilan mikroregional ehtiyojlar o‘rtasida mavjud tafovutni ochib berishi, resurslar adolatli taqsimoti va barqarorlikka erishish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: CPEC, Balujiston, resurslar taqsimoti, Gvadar, Baluj milliy noroziligi, iqtisodiy tengsizlik, xavfsizlik siyosati.

Abstract. This article analyzes the impact of infrastructure and energy projects implemented in the Balochistan region under the China-Pakistan Economic Corridor (CPEC) on the distribution of local resources, the balance of economic benefits, and regional socio-political stability. The study examines the tension between CPEC’s official presentation as a “development and integration project” and the actual economic disparities emerging in Balochistan, the increasing control of resources by the central government, and the exclusion of the local population from the projects. Furthermore, the research highlights, using analytical and comparative approaches, the protest movements that have emerged in the context of CPEC, the activation of Baloch

national identity, and the intensification of the security environment. The article analyzes, based on both international and local sources, how the centralization of control over Gwadar Port, transport corridors, economic zones, and natural resources (gas, copper, gold, oil) affects Balochistan's economic share. In particular, the diversion of revenues to the center, limited employment opportunities for the local population, scarcity of water and land resources, forced relocations, and intensified security policies are identified as key factors exacerbating Baloch grievances. The relevance of this study lies in demonstrating, on a scientific basis, that while CPEC is interpreted as a major axis of regional geopolitics, economic integration, and security systems, its local socio-economic consequences in Balochistan deepen long-standing ethnic and political conflicts. This article is significant as it reveals the gap between CPEC's macroeconomic objectives and micro-regional needs, and proposes practical recommendations for achieving equitable resource distribution and sustainable stability.

Keywords: CPEC, Balochistan, resource distribution, Gwadar, Baloch national grievances, economic inequality, security policy

Kirish: XXI asrda Buyuk Ipak yo'lining zamonaviy talqini sifatida shakllangan "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi mintaqaviy integratsiya, transport-logistika infratuzilmasi va iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu tashabbusning eng muhim tarkibiy loyihalaridan biri Pokiston – Xitoy Iqtisodiy Koridori (CPEC) bo'lib, u Xitoyning Shinjon hududini Arab dengizidagi Gwadar porti bilan bog'lash orqali strategik, iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyat kasb etadi. CPEC doirasida amalga oshirilayotgan infratuzilma, energetika va sanoat zonalariga oid loyihalar nafaqat ikki davlat iqtisodiyotiga, balki butun Janubiy Osiyodagi mintaqaviy muvozanatga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda¹. CPECning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblangan Balujiston mintaqasi tabiiy resurslarga boyligi, geostrategik joylashuvi va xalqaro savdo yo'llaridagi o'rniga ko'ra alohida ahamiyatga ega. Aynan shu hududda joylashgan Gwadar porti koridorning yuragi bo'lib, uning rivojlanishi butun mintaqaning iqtisodiy kelajagini belgilashi mumkin. Biroq, nazariy jihatdan taraqqiyotga xizmat qilishi kerak bo'lgan ushbu loyiha amalda resurslar taqsimoti, mahalliy aholi manfaatlari, siyosiy ishonch va ijtimoiy tengsizlik masalalarini yuzaga keltirayotganligi haqida munozaralar mavjud. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, CPEC ning Balujistondagi iqtisodiy foydalari bo'yicha rasmiy bayonotlar va mahalliy aholining real holati o'rtasida sezilarli tafovutlar kuzatilmoqda. Xususan, energetika resurslaridan foydalanish, infratuzilma loyihalarida qatnashish imkoniyatlari, ekologik xavfsizlik va mahalliy jamiyatni iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish kabi masalalar hududda norozilik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi CPECning Balujiston mintaqasiga ta'sirini tahlil qilish, resurslar taqsimoti bilan bog'liq muammolarni aniqlash va loyihaning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini ilmiy asosda baholashdir. Shu bilan birga, rasmiy siyosiy diskurs va real iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi zidliklarni ochib berish tadqiqotning

¹Zayb, M. S. (2023). CPEC: A great leap forward in Pakistan and China relations. *Journal of Higher Education and Development Studies*, 3(1), 39–62.

asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda tahliliy, siyosiy-iqtisodiy va qiyosiy yondashuvlardan foydalaniladi. Xususan, CPECning rasmiy hujjatlaridagi ma'lumotlar amaliy kuzatuvlar, mustaqil ekspert xulosalari, iqtisodiy ko'rsatkichlar va mahalliy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holati bilan qiyoslab tahlil qilinadi

Xitoy – Pokiston Iqtisodiy Koridori (CPEC) Balujiston hududidan o'tishi bilan nafaqat Pokistonning, balki butun mintaqaning geoiqtisodiy xaritasini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega. Hududning strategik ahamiyati bir necha omillarga asoslanadi: tabiiy resurslar, geosiyosiy joylashuv, transport yo'llari va xavfsizlik konteksti asosida juda muhim sanaladi. Balujiston tabiiy resurslarga nihoyatda boy mintqa hisoblanadi. Hududda gaz, neft, mis, oltin kabi konlar mavjud bo'lib, ularning iqtisodiy qiymati mamlakat budjeti va hududiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, tarixan bu resurslardan tushgan daromadlarning katta qismi markaziy hukumat nazorati ostida bo'lgan va mahalliy aholiga kam ulush yetkazilgan. Bu esa Balujiston aholisi orasida davlatga nisbatan norozilik va ishonchsizlikni kuchaytirgan.² CPEC Balujiston orqali o'tishi hududning geostrategik ahamiyatini yanada oshiradi. Gvadar porti orqali Hind okeaniga bevosita chiqish imkoniyati Xitoy uchun energetika va savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish, Malakka bo'g'oziga bo'lgan yuqori qaramlikni kamaytirish imkonini beradi CPEC g'oyasining markazida geoiqtisodiyot va geosiyosatning tutashuvi yotadi.³ U nafaqat oddiy iqtisodiy loyiha, balkida siyosiy manfaat orttirishga qaratilgan tashabbusdir. CPEC konsepsiyasining markazida geo-iqtisodiyot va geosiyosatning o'zaro uzviy integratsiyasi yotadi. Ushbu loyiha an'anaviy iqtisodiy hamkorlik doirasidan chiqib, keng qamrovli siyosiy, strategik va xavfsizlik manfaatlarini mujassam etgan ko'p qatlamli tashabbus sifatida namoyon bo'lmoqda. Loyiha doirasida energetika infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, sanoat zonalari, ishlab chiqarish korxonalari va zamonaviy logistika yo'laklarini barpo etish hamda mavjud infratuzilmani global iqtisodiyot talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni maksimal darajada oshirish ko'zda tutilgan. Bu esa Xitoy va Pokiston o'rtasidagi strategik hamkorlikning institutsional asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Geo-iqtisodiyot tushunchasi dastlab iqtisodiy vositalar orqali geosiyosiy ta'sirni kuchaytirish mexanizmi sifatida shakllangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan xalqaro munosabatlar tizimida muhim nazariy va amaliy kategoriya sifatida rivojlanib bordi. CPEC loyihasi ushbu konsepsiyaning amaliy ifodasi bo'lib, u iqtisodiy integratsiya orqali siyosiy va strategik ta'sir doirasini kengaytirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, loyiha dastlab rasmiy doiralarda ijobiy tashabbus sifatida talqin qilinayotgan bo'lsa-da, uning uzoq muddatli oqibatlari yuzasidan muayyan tanqidiy qarashlar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy qaramlikning ortishi, iqtisodiy suverenitet masalalari va ichki siyosiy barqarorlikka ta'siri kabi omillar Pokiston uchun potensial salbiy oqibatlar sifatida qayd etilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida geosiyosat sof iqtisodiy manfaatlardan ko'ra ko'proq keng qamrovli strategik va siyosiy maqsadlarni ilgari suruvchi vosita sifatida shakllanib bormoqda.

² Ahmadzai, P. M. (2025, April 6). Balochistan's paradox: Rich in resources, poor in development. South Asia.

³ Zafar, A. (2025). The strategic importance of Gwadar Port in regional connectivity and rivalries. Advance Social Science Archive Journal, 3(2).

Gvadar porti shuningdek, Pokistonning janubi-gʻarbiy qismini xalqaro savdo markaziga aylantiradi, bu esa mahalliy iqtisodiy faollikni ragʻbatlantiradi. Balujistonning strategik pozitsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham muhimdir. Mintaqadagi qurolli guruhlar faoliyati, port va transport yoʻllarining himoyasi, shuningdek, xalqaro logistika tarmoqlarining barqarorligi Pokiston va Xitoyni hamkorlikni chuqurlashtirishga majbur qiladi⁴. Ushbu vaziyat CPECning muvaffaqiyati uchun xavfsizlik, siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni uygʻunlashtirish zaruratini tugʻdiradi. CPEC loyihalari Balujiston uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi: ish oʻrinlari, transport va energetika infratuzilmasining rivojlanishi, mahalliy sanoat va savdo markazlari yaratish. Shu bilan birga, real holat shuni koʻrsatadiki, loyihalardan keladigan daromadlarning markazlashuvi va mahalliy aholi ulushining kamligi norozilikni kuchaytiruvchi asosiy sabablar sifatida qolmoqda. Balujistonning boy tabiiy resurslari, geostrategik joylashuvi va transport infratuzilmasidagi roli CPECning muvaffaqiyati uchun markaziy ahamiyatga ega. Loyihalar mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, xavfsizlik hamkorligi va strategik barqarorlikni kuchaytirishi mumkin, biroq mahalliy aholining loyihalardagi ulushi va resurslar taqsimoti masalalari davlat va mintaqa oʻrtasida ijtimoiy-siyosiy taranglikni kamaytirish uchun hal qilinishi zarur. Bu loyiha 2015-yildan rasmiy ravishda ishga tushirilgan boʻlib, u Xitoyning janub va yaqin sharqqa chiqish tashabbusining eng yirik tarkibiy segmenti hisoblanadi⁵. CPECning shakllanishiga 2000-yillar oʻrtalarida boshlangan Xitoy – Pokiston hamkorligining kuchayishi, xavfsizlik boʻyicha strategik ittifoq va energetik hamkorlikning chuqurlashuvi asos boʻlgan. Loyiha Xitoy uchun juda muhim sanaladi chunki bu loyiha orqali Xitoy nafaqat iqtisodiy balkida siyosiy maydonda oʻz pozitsiyasini mustahkamlaydi. Misol uchun birgina Gvadar porti orqali Arab dengizi boʻylab tezkor tranzit Xitoyning Yaqin Sharqdagi neft manbalariga boʻlgan logistika xarajatlarini sezilarli qisqartiradi⁶. Masofa qisqarishi bilan yaqin sharq va Arab davlatlari bilan Xitoy chuqur integratsiya aloqalarini mustahkamlab oladi.

Pokiston uchun esa CPEC – milliy infratuzilmani modernizatsiya qilish, energetika tanqchiligini kamaytirish va ichki transport tizimini birlashtirishning eng yirik imkoniyati sifatida baholanadi. Loyihada avtomobil yoʻllari, elektr stansiyalar, sanoat zonalari, optik tolali aloqa tizimlari va port infratuzilmasini yaratish kabi yoʻnalishlar asosiy oʻrin tutadi⁷. Pokiston hukumatining taʼkidlashicha, CPEC mamlakat ichki savdo tizimini integratsiyalashtirishi va uzoq muddatda iqtisodiy oʻsishga zamin yaratishi mumkin. CPECning markaziy boʻgʻini boʻlgan Gvadar porti geoiqtisodiy strategiya nuqtayi nazaridan “Xitoyning Hind okeaniga ochilgan eshigi” sifatida taʼriflanadi. Portning rivojlanishi Balujistonning Janoobiy Osiyo–Yaqin Sharq–Markaziy Osiyo oʻrtasidagi tranzit markazga aylanishiga xizmat qilishi koʻzda tutilgan. Gvadar erkin iqtisodiy zonasi orqali ishlab chiqarish klasterlari, logistika

⁴ Ali, A. (2024). CPEC as a game changer for Pakistan: A critical analysis. *Research Journal for Societal Issues*, 6(2), 460–468.

⁵ Barrech, D. M. (2023, September). Balochistan's potential under CPEC: Opportunities and challenges. *Qualitative Research*, 23(2), 235–257.

⁶ Rashid, A. (2025, January). A geo-political and geo-economic assessment of Gwadar Port in the context of the China-Pakistan Economic Corridor (CPEC). *Journal of Positive School Psychology*, 7(2), 94–105.

⁷ Riaz, F. (2022, April). China Pakistan Economic Corridor (CPEC), its role in Pakistan economy and its social and environmental status. *Journal of Applied Research and Multidisciplinary Studies*, 2(2), 1–15.

markazlari va neft-gaz qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish rejalashtirilgan. Loyihaning umumiy qiymati dastlab 46 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lsa-da, keyingi yillarda u 62 milliard dollardan oshgan⁸. Sarmoyalar asosan uch asosiy yo'nalishga taqsimlangan:

1. Energetika loyihalari – elektr stansiyalari, ko'mir va gaz quvurlari, qayta tiklanuvchi energiya obyektlari.
2. Transport va yo'l qurilishi – Karakoram avtomobil yo'li rekonstruksiya, Sharqiy va G'arbiy yo'laklar qurilishi, temir yo'l modernizatsiyasi.
3. Port va logistika infratuzilmasi – Gvadar portini kengaytirish, xalqaro aeroport qurilishi, dengiz logistik markazlari.

Umuman olganda, CPECning vujudga kelishi Xitoy va Pokiston o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi bosqichini boshlab berdi va uning asosiy maqsadlari mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, strategik xavfsizlikni mustahkamlash va ikki davlatning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirishdan iborat deya ko'riladi. Balujiston aholisi bu loyhaga ishonchsizlik bilan qaraydi. Balujiston hududi alohida ahamiyatli sanaladi. Balujistonning geografik makoni va tabiiy resurslari Pokistonning siyosiy-iqtisodiy arxitekturasida o'ziga xos paradoksni vujudga keltiradi: mintaqqa resurslarga g'oyat boy, ammo rivojlanish ko'rsatkichlari davlatchilikning eng past darajasida qolmoqda. Bu tafovutni oddiy statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki markaz periferiya munosabatlari, resurs nazorati modeli va geostrategik qarama-qarshiliklar orqali tushunish mumkin⁹. Balujistonning geografik o'rni mintaqaviy kuch muvozanatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uning hududi Pokistonni faqatgina qo'shni davlatlar bilan bog'lab turuvchi geografik ko'priksiz emas u global energiya va savdo oqimlarini Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bilan integratsiyalash imkonini beruvchi tabiiy tranzit maydonidir. Shu sababli Balujistonning geografiyasi Pokiston iqtisodiy xavfsizligining markaziy ustuniga aylangan. Ammo aynan shu strategik o'rinning o'zi markaziy hukumatning mintaqqa ustidan qat'iy nazoratni saqlab qolish zaruratini kuchaytirgan. Natijada Balujiston geografiyasi uni imkoniyat emas, balki doimiy siyosiy raqobat va beqarorlik maydoniga aylantirgan. Resurs salohiyati ham shunga o'xshash ikkiyoqlama xarakterga ega. Konchilik zaxiralari gaz, mis, oltin va boshqa boyliklar mintaqani iqtisodiy jihatdan mustaqil va o'z-o'zini ta'minlashga qodir hududga aylantira oladigan potentsialga ega. Biroq tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, resurslar Balujiston uchun rivojlanish manbai emas, aksincha, markaziy hukumatning iqtisodiy ustuvorliklarini legallashtirib turuvchi vosita bo'lib qolgan. Resurslar ustidan nazoratning markazlashuvi, daromadlarning adolatsiz taqsimlanishi va mintaqaviy manfaatlarining yetarli darajada inobatga olinmasligi Balujistonda uzoq yillik norozilik va siyosiy begonalashuvning strukturaviy ildiziga aylangan.¹⁰ Mintaqaning rivojlanishdan ortda qolishi esa resurslar mavjudligi bilan mutanosib ravishda emas, balki institutsional adolatsizlik, tengsiz ijtimoiy tuzilma, infratuzilmaviy uzilishlar va markaziy hukumatning xavfsizlikka yo'naltirilgan siyosati bilan izohlanadi. Ya'ni Balujistonning muammosi resurs yetishmasligi emas resurslarning siyosiy-iqtisodiy boshqaruv tizimidagi o'rnidir. Hududdagi tabiiy

⁸ <https://cpec.gov.pk/news/79> (17.12.2025)

⁹ <https://www.youtube.com/watch?v=7DGq2pdR4Bk> (19.12.2025)

¹⁰ Awan, Z. A. (2025, April 19). Pakistan's mineral economy: Unlocking potential, building peace and prosperity.

boyliklar mahalliy aholini iqtisodiy subyektga aylantirish o'rniga, ularni markaziy siyosatning obyektiga aylantirgan. Balujistonning geografiyasi va resurslari birgalikda mintaqani Pokistonning eng muhim strategik aktiviga aylantirsa-da, ayni paytda eng murakkab siyosiy tuguniga ham aylantirgan.

Shunday ekan, CPEC kabi mega-loyihalarning Balujiston taqdiridagi roli ham aynan shu kontekstda ko'rilishi lozim: loyiha resurslardan foydalanish modelini o'zgartiradimi, mahalliy aholini iqtisodiy jarayonlarga jalb etadimi yoki markaziy nazoratning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladimi? Balujistonning haqiqiy strategik qiymati uning qazilma boyliklaridan emas, balki ushbu resurslar va geografik makon qanchalik samarali boshqarilishi, adolatli taqsimlanishi va mahalliy manfaatlar bilan muvozanatga keltirilishidan kelib chiqadi. Shu jihatdan, mintaqa Pokistonni iqtisodiy integratsiya sari yetaklovchi imkoniyatlar maydoni bo'lishi bilan birga, noto'g'ri boshqaruv sharoitida beqarorlikning manbaiga aylanish xavfini ham o'zida mujassam etadi. Balujistondagi cho'zilgan mojaro nafaqat provinsiyaning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qildi, balki ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni ham kuchaytirdi va shu orqali keyingi mojarolar uchun qulay muhit yaratdi. Viloyatning boy tabiiy resurslari mahalliy, milliy va xalqaro manfaatdor tomonlar o'rtasida raqobat va keskinlikni kuchaytirib, tortishuvlar manbaiga aylandi¹¹.

Bundan tashqari, Balujistondagi mojaro ham provinsiya ijtimoiy tuzilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ishonchni so'ndirib, mahalliy jamoalar o'rtasida bo'linishni keltirib chiqardi. Hisobdorlik va shaffoflikning yo'qligi keskinlik va ishonchsizlikni yanada kuchaytirdi va shu tariqa zo'ravonlik va qasos olishning ayovsizliklarni davom ettirdi. Shu nuqtai nazardan, Balujistondagi rivojlanish muammolarini hal qilish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni hisobga oladigan keng qamrovli va inklyuziv yondashuvni talab qiladi. U tinchlik, adolat va inson qadr-qimmatini mustahkamlash, nizolar va tengsizlikning asosiy sabablarini bartaraf etish majburiyatini talab qiladi. Faqat shunday yondashuv orqali biz Balujistondagi zo'ravonlik va kam rivojlanganlik siklini sindirib, viloyatning tinchlik va farovonlik uchun ulkan salohiyatini ochishga umid qilishimiz mumkin. Bu loyha borasidagi markaz va region o'rtasidagi tortishuv ichki muvozanatni tarqoqlashuviga olib keladi. Li Qianqyan Liu Yijun o'z maqolasida bu loyhaga ommaviy axborot vositalarining munosabatlarini tahlil qilib CPEC hujjatlarning 56% ijobiy, 20% salbiy va 24% neytral ekanligini aytib o'tadi va bu loyha borasida Pokistonning munosabati ijobiy ekanligini takidlaydi¹². Biroq, loyiha bilan bog'liq tanqidiy fikrlar va qarshi qarashlar ham mavjud. Masalan, Achal Chole, Sharda Dhadse va Pushottam Sakhare "Biodiversity loss due to road widening and new highway" nomli maqolalarida CPEC loyihasining iqtisodiy samaradorligi bilan birga ekologik va atrof-muhitga jiddiy salbiy ta'sirlarini ko'rsatadilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, yangi yo'llar va transport inshootlarining kengayishi botqoqlik, soylar, dashtlar va o'rmonlarni zarar yetkazish bilan birga, yashash muhitining bevosita yo'qolishiga olib keladi. Shuningdek, transport yo'llari hayvonlarning nobud bo'lishiga, suv oqimlari rejimining o'zgarishiga, shovqin va ifloslanish darajasining oshishiga, hamda hududiy o'simliklar

¹¹ Ahmadzai, M. (2025, April 6). Balochistan's paradox: Rich in resources, poor in development. *Modern Diplomacy*.

¹² Li, Q., & Liu, Y. (2020). The China-Pakistan Economic Corridor: The Pakistani media attitudes perspective. *Technology in Society*, 62,

tarkibining salbiy ta'sirlanishiga sabab bo'ladi. Natijada, yashash muhiti hajmi qisqaradi va hayvonlarning tabiiy harakatlanishi cheklanishi kuzatiladi¹³. Ushbu tahlillar CPEC loyihasining iqtisodiy va strategik foydasi bilan ekologik barqarorlik orasidagi murakkab muvozanatni ochib beradi va loyiha bilan bog'liq siyosiy, ijtimoiy hamda ekologik risklarni akademik kontekstda baholash zarurligini ta'kidlaydi. Bunga o'xshaga yuzlab minglab qarashlar bor, lekin tarixchi va siyosatchi sifatida bunday mega loyihalarni va bu borasida kelib chiqayotgan bunga qarshi qarashlarni o'rganar ekanmiz, biz bunga sudya sifatida qaramasligimiz kerak. Bunday jarayonlarni o'rganib tahlil qilib eng manfaatli muxmi inson omilini hisobga olgan holda munosabatimizni bildirmog'ligimiz kerak. CPEC loyihasi Balujiston mintaqasida iqtisodiy va strategik rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Loyihaning amalga oshirilishi hudud infratuzilmasini rivojlantiradi, ish o'rinlarini kengaytiradi va transport-logistika tizimini modernizatsiya qiladi, shu bilan mintaqaning rivojlanish darajalari oshadi. Shu bilan birga, mahalliy aholi loyihalardan chetda qolishi, resurslar ustidan markaziy nazoratning kuchayishi va daromadlarning noteng taqsimlanishi inson omilini zaiflashtiradi, mahalliy ishonch va hamkorlikni kamaytiradi.

Balujistonning tabiiy boyliklari va geostrategik o'rni nafaqat imkoniyat, balki siyosiy va iqtisodiy xavf manbaiga ham aylanishi mumkin. Shu sababli hududdagi barqarorlik va rivojlanish darajalari inson omili, mahalliy manfaatlar va markaziy hukumat bilan muloqot darajasi bilan chambarchas bog'liq. Loyihaning muvaffaqiyati nafaqat iqtisodiy samaradorlikda, balki mahalliy jamoaning loyihalarga integratsiyasi, resurslar va daromadlarning adolatli taqsimlanishi, ekologik barqarorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlash bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, markaz va hudud o'rtasida shaffof muloqot, inklyuziv siyosiy yondashuv va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etish muhim. Bu loyhani mahalliy aholining loyihalarga faol jalb etilishi, ish o'rinlari va resurslardan ulushni oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy foydalarni adolatli taqsimlash. Faqat shunday yondashuv orqali CPEC Balujiston misolida inson omilini rivojlantirish, mintaqaviy rivojlanish darajasini oshirish va barqaror ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zayb, M. S. (2023). CPEC: A great leap forward in Pakistan and China relations. *Journal of Higher Education and Development Studies*, 3(1), 39–62.
2. Ahmadzai, P. M. (2025, April 6). Balochistan's paradox: Rich in resources, poor in development. *South Asia*.
3. Zafar, A. (2025). The strategic importance of Gwadar Port in regional connectivity and rivalries. *Advance Social Science Archive Journal*, 3(2).
4. Ali, A. (2024). CPEC as a game changer for Pakistan: A critical analysis. *Research Journal for Societal Issues*, 6(2), 460–468.
5. Barrech, D. M. (2023, September). Balochistan's potential under CPEC: Opportunities and challenges. *Qualitative Research*, 23(2), 235–257.

¹³ chole, A., Dhadse, S., & Sakhare, P. (2025). Biodiversity loss due to road widening and a new highway. *Sustainability and Biodiversity Conservation*, 4(2), 38–52.

6. Rashid, A. (2025, January). A geo-political and geo-economic assessment of Gwadar Port in the context of the China-Pakistan Economic Corridor (CPEC). *Journal of Positive School Psychology*, 7(2), 94–105.
7. Riaz, F. (2022, April). China Pakistan Economic Corridor (CPEC), its role in Pakistan economy and its social and environmental status. *Journal of Applied Research and Multidisciplinary Studies*, 2(2), 1–15.
8. Awan, Z. A. (2025, April 19). Pakistan's mineral economy: Unlocking potential, building peace and prosperity.
9. Ahmadzai, M. (2025, April 6). Balochistan's paradox: Rich in resources, poor in development. *Modern Diplomacy*.
10. Li, Q., & Liu, Y. (2020). The China–Pakistan Economic Corridor: The Pakistani media attitudes perspective. *Technology in Society*, 62.
11. Chole, A., Dhadse, S., & Sakhare, P. (2025). Biodiversity loss due to road widening and a new highway. *Sustainability and Biodiversity Conservation*, 4(2), 38–52.
12. Barrech, D. M. (2023, September). Balochistan's potential under CPEC: Opportunities and challenges. *Qualitative Research*, 23(2), 235–257.